

## IKKI ESHIK ORASI" ROMANI ASOSIDA AYOLLAR VA JAMIYATDAGI O'RNI

*Ibrohimova Dilshoda*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidagi ayollar obrazlari tahlil qilinadi. Asarda Robiya, Qora amma va Rano obrazlari orqali ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning sabr-bardoshi, mehr-shafqati va ma'naviy roli o'rganiladi. Maqola ayollarning urush va sinov davrlarida jamiyat ruhini saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** ayollar obrazlari, jamiyat, Robiya, Qora amma, Rano, ma'naviy qadr, urush, sabr-bardosh.

### **Kirish**

O'zbek adabiyotida ayollar obrazlari har doim muhim mavzu bo'lib kelgan. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani urush va sinov davrida ayollar qanday rol o'ynashini, ularning jamiyatdagi ahamiyatini yoritadi. Asar urush voqealarining insonlar hayotiga ta'sirini ochib berish bilan birga, ayollarning ruhiy va ma'naviy poydevorni saqlashdagi roli orqali o'quvchida ijtimoiy va ma'naviy tafakkur uyg'otadi. Shu maqolada asosiy e'tibor Robiya, Qora amma va Rano obrazlariga qaratiladi.

O'tkir Hoshimov o'zining "Ikki eshik orasi" romanida kishilik jamiyatimizning ijtimoiy hayot tarzi, kundalik turmush sharoitining tasviriy ifodalarini keng tarzda yoritib olgan. Ushbu asar keng jamoatchilik vakillari orasida yuqsek mavqega ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Romanda ayollar obraziga ham keng o'rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora onna ajralib turadi. Qora amma-mehribon, sadoqatli, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida jasurlik kuch topadi. Qora amma o'ti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsanini yer-u ko'kka ishonmasdan katta qiladi. Yurtida mudhish urush boshlanqach, miq etmav, eli-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi -Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li o'rtadan qanytqmaydi, yaralnadi. Muallif ana shu voqeanii tasviriy vositalar bilan birga o'zaro konfliktlar bilan ifoda etadi. O'. Hoshimov konfliktlarga boy vaziyatni badiiy qonuniyatlarga muvofiq yaratadi.

Qishloqdan Kimsan bilan unashtirilgan bu qiz emil Kimsaninng sal kam yoti der yugan kishilar uni boshqa bir yigit bilan izza tarzida kuzatdilar. Bu paytda qaynuka kishida hech bir xulosalar o'tishi mumkin? Dildagi gap-so'zlarini larin izohlash uchun bunday paytda anchayin qiyin bo'ladi yozilarini yaratadi. Maullif man shu vaziyatni

bir necha muhim ochib bermoqda. Ushbu real voqealar ketilasida Robiya vo lakishni tasvirlab o'tmoqchi. O'z zamonashining voqealar kesimiga jimmla roz bo'lib yashab kelayotgan Robiya yor uyiga kelinbo'lib ketayotgan kezda hayolidan turli narsalar bilan birga alam va iztirob ham mavjud edi.

Yerda ot ham yig'laydi  
Ot bo'ldim deb, yor-yor,  
Yo'lda yor ham yig'laydi  
Yot bo'ldim deb, yor-yor.

Ya'ni Robiyaning mana shunday ichki xotirjamligi emas, balki psixologik tasviri, o'z-o'zi bilan kurashishi ya'ni konflikti u o'z ichida kurshlarda qoldi. Hozirgi zamonda bu aqlga sig'maydigan bir vaziyatdir, kimningdir yori ma'lum bir sababdan so'ng yana bir boshqa kishiga turmushga chiqib ketsa eh, bu yerda mador bor bo'l'masa, atang deya qolamiz. Bunday vaziyatda men turmush qurmayman deyishlariii ham mumkin, biroq Robiya o'zining hayot tarzi, soddaigi, samimiyligi va ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Nafaqqat Robiya balki, boshqa obrazlar ham roman talablariga muvofiq tasvir mohiyatlaridan anchayin ifodalangan.

“Ikki eshik orasi” bekorga shov-shuvlarga va tortishuvlarga sabab bo'lgan asar hisoblanmaydi. “Aynan mana shunday jihatlari bilan yana bir obraz bor - Qora amma obrazi. Buni biz kuzatishimiz mumkinki, Bashorat obrazi ayol bo'lishiga qaramasdan, erini urushga ketishiga qaramsadan ayollarning birinchilaridan bo'lib, traktor yani mashina haydaydi”<sup>1</sup>. Traktor haydash va qizlarni o'qitish texnika ishlariga jalb qilish masalalari urush davrlarida keyin qayta qurilish yillarida urush davrida yuzaga kelgan masalalardan. “Yo'q, men ayol kishiman, mening kuchim yetmaydi, men ojizaman”, - deb o'tirnadi.” deb o'rirmadi. Nafaqqat Robiya, Qora amma, Fotima kelin, Zuhra kelin barcha-barchasi mehnat, mehnatning ortdagi zahmatga chidab bera oldi. Ular jamiyatda hech norozilik bildirmadi. Yo Xudo men bunday jamiyatni tilab olmagan edim deb noli'b o'tirmadi. Ular istisnolarga berilmasdan, mustahkam turli oqild, kim uchun albatta, farzandi uchun, yurti uchun, elim deb, elim deb urushdan yurgan kishilar uchun, yana nima uchun desangiz, ularni boqib turgan, yoqlarini boqib turgan, oju izlarini bosib turgan iziq olqovich vatani uchun kurashdi. Suyok kunlarda, ayovsiz mehnatli kunlarda loyshomida boqib turgan bular juda qattiq mehnat qilgan kezlarda badiiy tarzda Otkir Hoshimoving muallif usuli o'ziga xoslikni tashkil etadi.

### **Qora amma.**

Kimsanning onasi. Qora amma farzandini kelajakda kamolga yetkazadi va qovog'i uchsa, xafa bo'lardi, ho'lardi, hol-ahvoli bilan yashardi. Kimsanning uyida tinch-osoyishtalik hukm surardi. Lekin kutilmaganda uni frontga jo'natishdi. Kimsanning onasi uchun bu dahshatli xabar edi. U o'g'li haqida o'ylab iztirob chekdi. Shu bilan birga bardam ko'rishga harakat qildi. Ammo o'g'li qaytmadi, yillar o'tsa-da unga aza ochmadi. O'zi o'limi ko'rdi, fasad haykalini.

General haykallaridan birining bog'ichini tortgan edi, boshiga ro'mol tashlagancha uzoq-uzoqlarga nufus termilib o'tirgan ona paydo bo'ldi. Bu Qora amman edi. U katta-katta, sertirnoq qo'llarini tizasiga qo'yib, boshini quyi solib o'tirar, ko'zlarida cheksiz mung ufurib turar edi, bu esa "Qora amma" va "Kimsan" timsolida yorqin aks etgan.

Jon bolam jonim bolam  
Olloga topshiridim seni,  
Ollomga Olloh yetmadi,  
Tuprqqa topshiridim seni.  
Robiya.

Qora ammaning "qizi". Robiyaning o'z onasi erta vafot etgandan keyin otasi bilan birga qishlog'ini tashlab, o'raga shaharga kelgan va yettoy begona bir ayolni – "Qora ammani" o'ziga ona deb bilgan qizdir. Urush har bir insonga o'z ta'sirini o'tkazadi va Robiya qiz bola bo'la turib dalada traktor haydab yurishga majbur bo'ladi. Urushning og'ir oqibatlarini Zuchkinni ham yer ishidagi va mashaqqatli "sizlikka" darajasiga "qotirdi".

Rano.

Rano – bu asardagi eng fojeali obraz. U kimsaning onasi, onalik mehrining timsoli sifatida gavgdalanadi. Urush yillaridagi og'irlik, yigitlarning frontga ketishi, qizlarning erkaksifat bo'lib chiqishiga sabab bo'ladi. Rano hushsiz holda, iztirobda, ruhiy qiynoqlarda o'g'liga hiyonat kechirishga majbur bo'ladi. O'ylamasdan qilingan bir xato uning butun umrini iztirobga aylantiradi. Rano o'z farzandining qurbonini bo'ladi.

Bu asardagi ayollar birlashtirilib turadigan yagona umumiy nuqta – urushdan ketgan yaqinlarining hammasi sog'-salomat qaytishi edi. Urush tugadi. Shomurod qayti, lekin Kimsan qaytmadi. "Kimsan" obrazi orqali haqiqiy o'zbek yigit timsolini ko'ramiz.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asarda pahlavondek o'g'illarini urushga jo'natgan bardoshlik onalar qismati, chirmidag'i komasoni hamda o'z oilasini to'g'ri yo'lga boshlagan kelinchaklar taqdiri mohirona tasvirlangan. Aytish mumkinki, bu asarda asosiy e'tibor ayollarga qaratilgan bo'lib, urush yillarida ularning boshdan o'tkazgan qiyinchiliklari o'z ifodasini topgan. Asarda butun o'zbek oilalarining urush yillarida boshidan kechirgan iztiroblari, og'ir kunlari aks etgan. Asarda ayollar orqalagan bo'lsa-da, asosiy e'tibor ayollar iztirobi, kechirmishlari tasviriga qaratiladi.